

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XIV RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

IYUL, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil).– 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

«QUTADG'U BILIG» DIDAKTIK ASARINI 5E MODEL ASOSIDA O'QITISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Abdiraupova Zarnigor

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Email: zarnigorbdiraupova216@mail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada «Qutadg'u bilig» didaktik asarini 5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) modeli asosida o'qitishning metodik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi didaktik asarlarni o'qitishda konstruktivistik yondashuvga asoslangan 5E modelining samaradorligini nazariy va metodik jihatdan asoslash hamda uni adabiyot ta'limi amaliyotiga moslashtirishdan iborat. Tadqiqot davomida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, modellashtirish va metodik umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Muallif tomonidan «Qutadg'u bilig»ni o'qitishga mo'ljallangan 5E modelining bosqichma-bosqich metodik tavsifi ishlab chiqildi hamda har bir bosqich uchun o'quvchilarning tanqidiy, ijodiy va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi taklif etildi. Tadqiqot natijalari 5E modeli asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning matnni tahlil qilish, axloqiy-estetik xulosalar chiqarish, mustaqil fikrlash va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Mazkur metodik yondashuv adabiyot ta'limi sifatini oshirish hamda didaktik asarlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: 5E modeli, Qutadg'u bilig, didaktik asar, adabiyot ta'limi, o'qitish metodikasi, konstruktivistik yondashuv, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

METHODOLOGICAL POSSIBILITIES OF TEACHING THE DIDACTIC WORK "KUTADGU BILIG" BASED ON THE 5E MODEL

Abdiraupova Zarnigor

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi
Independent researcher

Annotation. This article examines the methodological opportunities for teaching the didactic literary work Qutadg'u Bilig through the 5E Instructional Model (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate). The purpose of the study is to provide a theoretical and methodological justification for the effectiveness of the constructivist-based 5E model and to adapt it to literature teaching practice. The research employs methods of scientific literature analysis, comparative analysis, modeling, and methodological synthesis. A stage-by-stage instructional framework for teaching Qutadg'u Bilig based on the 5E model is proposed, together with a system of learning activities designed to foster students' critical, creative, and reflective thinking. The findings indicate that lessons organized according to the 5E model improve students' ability to analyze literary texts, draw moral and aesthetic conclusions, think independently, and apply acquired knowledge to real-life situations. The proposed methodological approach contributes to improving the quality of literature education and enhancing the teaching of didactic literary works through modern pedagogical technologies.

Keywords: 5E Instructional Model, Qutadg'u Bilig, didactic literary work, literature education, teaching methodology, constructivist approach, critical thinking, creative thinking, pedagogical technologies, competency-based education.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i14/n14>

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ta'lim jarayoniga keng joriy etishni taqozo etmoqda. Xususan, adabiyot

ta'limida o'quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda izlovchi, tahlil qiluvchi va hayotiy vaziyatlarda qo'llay oluvchi faol subyekt sifatida shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi[8]. Shu nuqtai nazardan konstruktivistik ta'lim g'oyalariga asoslangan "5E modeli" o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish hamda kompetensiyalarini shakllantirishda samarali metodik yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlariga mos kompetensiyalarni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish davlat ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish, ayniqsa didaktik asarlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri sanaladi. Didaktik asarlar o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish, ezgulik, adolat, halollik, ilmga intilish, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda muhim o'rin tutadi. Ana shunday bebaho ma'naviy meros namunalaridan biri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridir. Mazkur asar nafaqat turkiy xalqlar adabiyotining yirik yodgorligi, balki davlat boshqaruvi, odob-axloq, ilm-ma'rifat va komil inson tarbiyasi haqidagi didaktik qarashlarni mujassamlashtirgan qomusiy manba hisoblanadi[10,15-22b]. Asarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish o'quvchilarning asarni chuqur anglashiga hamda undagi hayotiy g'oyalarni zamonaviy ijtimoiy munosabatlar bilan bog'lay olishiga xizmat qiladi. "5E modeli" (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate) Robert Bybee tomonidan ishlab chiqilgan konstruktivistik ta'lim modelidir. Mazkur model o'quvchilarning mavjud bilimlarini faollashtirish, yangi bilimlarni mustaqil kashf etish, ularni izohlash, amaliyotda qo'llash va o'zlashtirish darajasini baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi [1,12-18b]. Dastlab tabiiy fanlarni o'qitish uchun ishlab chiqilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda ushbu modelning gumanitar fanlar, jumladan, adabiyot ta'limida ham samarali qo'llanishi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "5E modeli" bo'yicha xorijiy olimlar tomonidan qator ilmiy ishlanmalar yaratilgan. Biroq «Qutadg'u bilig» kabi didaktik asarlarni "5E modeli" asosida o'qitish metodikasi, ayniqsa umumiy o'rta ta'lim maktablari adabiyot darslari misolida, yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

«Qutadg'u bilig» didaktik asarini "5E modeli" asosida o'qitishning metodik imkoniyatlarini aniqlash, model bosqichlarini adabiyot ta'limiga moslashtirish hamda o'quvchilarning tanqidiy, ijodiy va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat. Ta'lim jarayonida konstruktivistik yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasi so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mazkur yondashuv o'quvchining bilimni tayyor holda qabul qilishi emas, balki uni faol izlanish, tahlil va muloqot jarayonida mustaqil ravishda o'zlashtirishini nazarda tutadi. Konstruktivizm nazariyasining shakllanishida J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi, L. S. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi hamda J. Brunerning kashfiyot orqali o'qitish konsepsiyasi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [2,18b]. Konstruktivistik yondashuv asosida ishlab chiqilgan 5E modeli ilk bor Biological Sciences Curriculum Study (BSCS) dasturi doirasida Robert V. Bybee rahbarligida taklif etilgan. Modelning *Engage* (Qiziqtirish), *Explore* (Tadqiq etish), *Explain* (Tushuntirish), *Elaborate*

(*Chuqurlashtirish*) va *Evaluate (Baholash)* bosqichlari o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi. R. Bybee 5E modelini o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyalarini shakllantiruvchi samarali didaktik model sifatida e'tirof etadi [2,23b]. So'nggi yillarda H. Ruiz-Martin va R. Bybee tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda "5E modeli" ning zamonaviy kognitiv psixologiya tamoyillari bilan uyg'unligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotchilar modelning har bir bosqichi inson miyasining bilimni qabul qilish, qayta ishlash va uzoq muddatli xotirada saqlash jarayonlariga mos kelishini ta'kidlaydilar [1, 21b]. Mazkur xulosalar "5E modeli"ni nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlarni o'qitishda ham qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekistonda adabiyot ta'limini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan [7]. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, «Qutadg'u bilig» singari didaktik asarlarni "5E modeli" asosida o'qitish metodikasi alohida ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Aksariyat ishlarda asarning badiiy, falsafiy va axloqiy jihatlari tahlil qilingan bo'lsa-da, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish masalalari cheklangan darajada yoritilgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari turkiy xalqlar ma'naviy merosining nodir namunalaridan biri bo'lib, unda davlat boshqaruvi, adolat, ilm-ma'rifat, axloq va komil inson tarbiyasiga oid qarashlar badiiy obrazlar vositasida ifodalangan [10,85-87b]. Mazkur asarning didaktik salohiyati uni umumiy o'rta ta'lim maktablarida ma'naviy-axloqiy tarbiya vositasi sifatida o'qitishni taqozo etadi. Shu bois uni "5E modeli" asosida o'rganish o'quvchilarning nafaqat matnni tahlil qilish, balki asardagi g'oyalarni zamonaviy hayot bilan bog'lash, tanqidiy va refleksiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Shunday qilib, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili "Qutadg'u bilig"ni "5E modeli" asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy izlanishlar yetarli emasligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot ana shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, didaktik asarni o'qitishning yangi metodik modelini taklif etishi bilan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosini konstruktivistik ta'lim nazariyasi hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida Robert Bybee tomonidan ishlab chiqilgan "5E modeli" didaktik asarlarni o'qitish jarayoniga moslashtirildi. Mazkur modelning Qiziqtirish (Engage), Tadqiq etish (Explore), Tushuntirish (Explain), Chuqurlashtirish (Elaborate) va Baholash (Evaluate) bosqichlari «Qutadg'u bilig» asarining mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi va badiiy xususiyatlariga muvofiq metodik jihatdan qayta ishlab chiqildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish — "5E modeli", konstruktivistik ta'lim va didaktik asarlarni o'qitish metodikasiga oid mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalarni o'rganish; qiyosiy-tahliliy metod — an'anaviy dars modeli bilan 5E modeli asosidagi darsning metodik imkoniyatlarini taqqoslash; modellashtirish metodi — «Qutadg'u bilig»ni o'qitishga moslashtirilgan "5E modeli"ning mualliflik metodik modelini ishlab chiqish; kuzatish va pedagogik tahlil — o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va o'quv faoliyatini tahlil qilish; umumlashtirish metodi — olingan ilmiy natijalar asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot obyekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablarida «Qutadg'u

bilig» asarini o'qitish jarayoni tanlandi. Tadqiqotning maqsadiga erishish uchun "5E model"ining har bir bosqichiga mos metod va topshiriqlar ishlab chiqildi. Jumladan, Engage bosqichida o'quvchilarning avvalgi bilimlarini faollashtirish va mavzuga qiziqishini uyg'otuvchi muammoli savollar qo'llanildi. Explore bosqichida matn bilan mustaqil ishlash, guruhli tahlil va izlanishga asoslangan topshiriqlar tashkil etildi. Explain bosqichida o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar ilmiy va badiiy tahlillar bilan boyitildi. Elaborate bosqichida asardagi g'oyalarni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga xizmat qiluvchi ijodiy vazifalar ishlab chiqildi. Evaluate bosqichida esa o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash mezonlari ishlab chiqildi [9].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi «Qutadg'u bilig» didaktik asarini o'qitish uchun "5E modeli"ga asoslangan metodik tizimning ishlab chiqilgani, har bir bosqich uchun adabiyot fanining mazmuniga mos metod va topshiriqlar taklif etilgani hamda didaktik asarlarni o'qitishda konstruktivistik yondashuvning metodik imkoniyatlari asoslab berilgani bilan belgilanadi.

Mazkur metodologik yondashuv o'quvchilarning matnni tahlil qilish, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, axloqiy-estetik xulosalar chiqarish hamda o'z fikrini dalillar asosida ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Qutadg'u bilig"ni "5E modeli" asosida o'qitish o'quvchilarni dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradi. "Engage" bosqichida muammoli savollar orqali o'quvchilarning mavzuga qiziqishi uyg'otiladi. "Explore" bosqichida matn bilan mustaqil ishlash tashkil etilib, asarning asosiy g'oyalari aniqlanadi. "Explain" bosqichida o'quvchilar o'z xulosalarini ilmiy dalillar bilan asoslaydilar. "Elaborate" bosqichida asardagi pand-nasihatlarni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bog'lanadi. "Evaluate" bosqichida esa o'quvchilarning bilimlari va refleksiv ko'nikmalari baholanadi.

Didaktik asarlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o'qitish o'quvchilarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki mustaqil fikrlash, tahlil qilish va hayotiy vaziyatlarga munosabat bildirish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [4,276]. Shu nuqtai nazardan, "5E modeli" «Qutadg'u bilig»ni o'qitishda samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur modelning har bir bosqichi o'quvchilarning bilish faoliyatini izchil tashkil etishga xizmat qilib, asarning mazmuni va g'oyalarni chuqur o'zlashtirish imkonini yaratadi. *Engage (Qiziqtirish)* bosqichida o'quvchilarning avvalgi bilimlari faollashtiriladi va yangi mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otiladi. «Qutadg'u bilig»ni o'rganishda darsni «Komil inson qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak?», «Jamiyat taraqqiyotida adolatning o'rni qanday?» kabi muammoli savollar bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Mazkur savollar o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasi bilan asar mazmuni o'rtasida bog'liqlik hosil qilishga xizmat qiladi. *Explore (Tadqiq etish)* bosqichida o'quvchilar kichik guruhlarda asarning tanlangan parchalarini mustaqil o'rganadilar. Ular Yusuf Xos Hojib ilgari surgan adolat, ilm, zakovat, qanoat va davlat boshqaruvi haqidagi g'oyalarni aniqlab, matndan dalillar keltiradilar. O'qituvchi bu bosqichda tayyor bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning izlanish faoliyatini boshqaruvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi [10,540b]. *Explain (Tushuntirish)* bosqichida guruhlar o'z kuzatishlari va xulosalarini taqdim etadilar. O'qituvchi o'quvchilarning fikrlarini ilmiy jihatdan umumlashtirib, asardagi ramziy obrazlar — Kuntug'di, Oytoldi, O'gdulmish va O'zg'urmish timsollarining badiiy-estetik hamda didaktik vazifalarini tushuntiradi. Natijada o'quvchilarda matnni tahlil qilish va fikrini dalillar asosida asoslash ko'nikmalari shakllanadi. *Elaborate (Chuqurlashtirish)* bosqichida o'quvchilar o'zlashtirilgan bilimlarni yangi

vaziyatlarda qo'llaydilar. Masalan, «Qutadg'u bilig»dagi pand-nasihatlarining bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyati yuzasidan esse yozish, munozara tashkil etish yoki loyiha tayyorlash kabi topshiriqlar beriladi. Bunday faoliyat o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, muloqot madaniyati va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. *Evaluate (Baholash)* bosqichida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi kompleks baholanadi. Baholashda faqat yakuniy natijaga emas, balki o'quvchining dars davomida namoyon etgan faolligi, mantiqiy fikrlashi, dalillash madaniyati va refleksiv yondashuviga ham e'tibor qaratiladi. O'zaro baholash, o'zini baholash va mezonli baholash usullaridan foydalanish o'quvchilarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Taklif etilayotgan metodik yondashuvning muhim jihati shundaki, u o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Asarni o'rganish jarayonida o'quvchilar tayyor xulosalarni yod olish o'rniga, matnni mustaqil tahlil qilish, muallif g'oyasini anglash va uni zamonaviy hayot bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Natijada adabiyot darslarining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalari uyg'un holda amalga oshiriladi[3,45]

Shunday qilib, "5E modeli" «Qutadg'u bilig»ni o'qitishda o'quvchilarning adabiy kompetensiyasini, tanqidiy va ijodiy fikrlashini, shuningdek, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuv sifatida baholanishi mumkin.

Tadqiqot natijalari va muhokama.

Tadqiqot davomida Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" didaktik asarini o'qitish jarayoniga 5E modelini tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi hamda modelning har bir bosqichiga mos interfaol metodlar va o'quv topshiriqlari ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodik tizim o'quvchilarning faqat badiiy matn mazmunini o'zlashtirishini emas, balki unda ilgari surilgan axloqiy-falsafiy g'oyalarni zamonaviy hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab tahlil qilishini ham ta'minlaydi.

Modelning 1-bosqichida yangi mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish va ularning avvalgi bilimlarini faollashtirishga xizmat qiladi. Shu maqsadda "Hikmatlar laboratoriyasi" metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Namunaviy topshiriq. O'qituvchi o'quvchilarga "Qutadg'u bilig"dan ilm va zakovatga oid hikmatlardan birini taqdim etadi.

Uquv qadrini ham uquvli bilar

Bilim sotsa dono, bilimli olar. O'quvchilarga quyidagi savollar beriladi:

Hikmatning asosiy mazmuni nimadan iborat?

Ushbu fikr bugungi ta'lim tizimida qanday ahamiyat kasb etadi?

Hayotingizdan mazkur hikmatga mos misol keltiring.

Mazkur faoliyat o'quvchilarning mavzuga nisbatan motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ularni keyingi izlanish bosqichiga tayyorlaydi.

2- bosqichda o'quvchilar asar matni ustida mustaqil ishlaydi, undagi asosiy g'oyalarni aniqlaydi va tahlil qiladi. Bunda "Qadriyatlar navigatori" metodidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Namunaviy topshiriq. O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va ularga asarning turli boblaridan parchalar taqdim etiladi. Har bir guruh: asarda aks etgan asosiy qadriyatlarni aniqlaydi; ular o'rtasidagi bog'liqlikni sxema yoki konseptual xarita shaklida ifodalaydi; mazkur

qadriyatlarining bugungi jamiyatdagi o'rni haqida xulosa chiqaradi. Natijada o'quvchilarning axborotni tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish kompetensiyalari rivojlanadi.

3-bosqichda o'quvchilar o'z kuzatishlarini dalillar asosida izohlaydi hamda guruhlararo muloqotda ishtirok etadi. Shu maqsadda "Obrazlar dialogi" metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Namunaviy topshiriq. Sinf to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruh quyidagi obrazlardan birining rolini bajaradi: Kuntug'di; Oytoldi; O'gdulmish; O'zg'urmish. munozara mavzusi: "Yoshlar tarbiyasida eng muhim qadriyat qaysi?" Har bir guruh o'z obrazining qarashlari asosida fikr bildiradi, boshqa guruhlarining mulohazalariga munosabat bildiradi va umumiy xulosani shakllantirishda ishtirok etadi. Mazkur metod o'quvchilarda muloqot madaniyati, argumentlash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. 4-bosqichda olingan bilimlar yangi vaziyatlarga tatbiq etiladi. Bunda "Hikmatdan yechimga" metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Namunaviy topshiriq. Muammo: "Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyatining pasayishi."

O'quvchilar: asardan til odobiga oid hikmatni tanlaydi; hikmat mazmunini sharhlaydi; muammoning sabablarini aniqlaydi; hikmat asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Yakunida guruhlar o'z yechimlarini taqdim etadilar va ularning samaradorligi muhokama qilinadi.

Mazkur faoliyat o'quvchilarning muammolarni tahlil qilish hamda amaliy yechim ishlab chiqish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5-bosqichda o'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlari va shakllangan kompetensiyalari baholanadi. Buning uchun "Raqqamli tafsir" metodidan foydalanish tavsiya etiladi.

Namunaviy topshiriq. O'quvchilar quyidagi topshiriqlardan birini bajaradilar: infografika yaratish; podkast tayyorlash; videorolik ishlash; elektron taqdimot ishlab chiqish. Mavzu: "Qutadg'u bilig" – zamonaviy yoshlar uchun ma'naviy qo'llanma. Baholash quyidagi mezonlar asosida amalga oshiriladi: mazmunning to'g'riligi; asar g'oyasining to'liq yoritilishi; ijodkorlik; raqqamli vositalardan foydalanish sifati; taqdimot madaniyati. Ushbu bosqich o'quvchilarning bilimni baholash bilan birga, ularning o'z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya yuritish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Taklif etilgan metodik tizim 5E modelining didaktik tamoyillarini "Qutadg'u bilig" asarining mazmuni bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi. Har bir bosqich uchun ishlab chiqilgan interfaol metodlar o'quvchilarni badiiy matnni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va zamonaviy hayotiy vaziyatlarga tatbiq etuvchi faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu esa adabiyot ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

«Qutadg'u bilig»ni 5E modeli asosida o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy metod va topshiriqlar tizimi

Metod nomi	Maqsadi	O'quv topshirig'i	Kutilayotgan natija
Hikmatlar laboratoriyasi	Hikmatlarning zamonaviy hayotdagi ahamiyatini anglash	O'quvchilar asardan 5 ta hikmatni tanlab, ularni bugungi hayotiy vaziyatlar	Hikmatlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish kompetensiyasi shakllanadi.

		(ta'lim, oila, internet, kasb, jamiyat) bilan bog'laydi va muammoning yechimini izohlaydi.	
Qadriyatlar navigatori	Asardagi qadriyatlarni tizimli tahlil qilish	O'quvchilar adolat, ilm, aql, qanoat, halollik, saxovat kabi qadriyatlarni aniqlab, ularning o'zaro bog'liqligini xarita (mind map) ko'rinishida tasvirlaydi.	Qadriyatlarni tahlil qilish va umumlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi.
Obrazlar dialogi Qahramonlar	Qahramonlar dunyoqarashini zamonaviy muammolar bilan bog'lash	Guruhlar Kuntug'di, Oytoldi, O'gdulmish va O'zg'urmish obrazlari nomidan korrupsiya, ekologiya, sun'iy intellekt, internet madaniyati kabi mavzularda munozara tashkil etadi.	Empatiya, argumentatsiya va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.
Hikmatdan yechimga	Hikmatlarni amaliy muammolar yechimiga tatbiq etish	O'quvchilar dolzarb ijtimoiy muammoni tanlab, asardan unga mos hikmatni topadi va hikmat asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqadi.	Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyasi rivojlanadi.
Raqamli tafsir	Raqamli texnologiyalar orqali asarni ijodiy talqin qilish	O'quvchilar infografika, podkast, animatsion video yoki elektron taqdimot tayyorlab, asarning bosh g'oyalarini sharhlaydi.	Raqamli savodxonlik va ijodiy taqdimot ko'nikmalari rivojlanadi.

Xulosa. Mazkur interfaol metodlar "Qutadg'u bilig" asarini kompetensiyaviy yondashuv asosida o'qitishga xizmat qiladi. Ular o'quvchilarning matnni tahlil qilish, qadriyatlarni anglash, muammoli vaziyatlarga yechim topish, muloqot va hamkorlikda ishlash hamda raqamli

texnologiyalardan samarali foydalanish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Natijada asar mazmuni o'quvchilar uchun zamonaviy hayot bilan uzviy bog'langan holda o'zlashtiriladi va uning tarbiyaviy hamda ma'naviy salohiyati yanada samarali namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Bybee, R. W. The BSCS 5E Instructional Model: Creating Teachable Moments. – Arlington, VA: NSTA Press, 2015.
2. Bybee, R. W., Taylor, J. A., Gardner, A., Van Scotter, P., Powell, J. C., Westbrook, A., & Landes, N. The BSCS 5E Instructional Model: Origins and Effectiveness. – Colorado Springs: BSCS, 2006.
3. Karimov, N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. Mahmudov, N. Mumtoz adabiyot va ma'naviy tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
5. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
6. OECD. OECD Learning Compass 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti. 2020-yil 6-apreldagi 187-son qaror. – Toshkent, 2020.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoni. 2022–2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha Milliy dastur to'g'risida.
9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. – Paris: UNESCO, 2021.
10. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XIV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, iyul

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XIV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 14-son (28-iyul, 2026-yil). – 99 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 24-iyul.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.